

**ӨЗБЕКСТАН РЕСПУБЛИКАСЫ ЖОҚАРЫ  
ХЭМ ОРТА АРНАЎЛЫ БИЛИМЛЕНДИРИҮ  
МИНИСТРЛИГИ**

**ӘЖИНИЯЗ АТЫНДАҒЫ  
НӨКИС МӘМЛЕКЕТЛИК ПЕДАГОГИКАЛЫҚ  
ИНСТИТУТЫ**



**«Заманагәй психология ҳәм педагогиканың  
актуал мәселелери» атамасындағы  
Респубикалық илимий-эмелий конференция  
МАТЕРИАЛЛАРЫ**

**«Замонавий психология ва педагогиканинг  
долзарб масалалари» мавзусидаги  
Республика илмий-амалий анжуман  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**Нөкис-2022**

UDK  
159.9:37.0  
ББК:  
88.3:74.0  
3-36

**«Заманагөй психология ҳәм педагогиканың актуал мәселелери»** атамасында Республикалық илимий-әмелий конференция материаллары топламы. Нөкис. 2022-ж. 392 бет.

«Заманагөй психология ҳәм педагогиканың актуал мәселелери» »атамасындағы Республикалық илимий-әмелий конференция материалларына республикамыздың жоқары ҳәм орта арнаұлы оқыўорынлары педагог-хызметкерлері, үлкен илимий хызметкер-излениўшилер, магистрантлар, талабалар илим-тәрбия мәселелерине арналған илимий баянатлары киргизилген.

Конференция материалларының мазмұны ҳәм онда көрсетилген дереклердің дұрыслығына авторлар жуўапкер.

### **ЖУҮАНЛЫ РЕДАКТОР: Қ.ҚОЩАНОВ**

### **РЕДКОЛЛЕГИЯ ҚУРАМЫ:**

1. М.Жалелов - Илимий ислер ҳәм инновациялар бойынша проректор
2. Ш.Сапаров - педагогика факультети деканы, доцент
3. А.Наурызбаева - педагогика кафедрасы профессоры
4. Э.Нурымбетова – психология кафедрасы баслығы, психология пәнлери философия докторы PhD
5. А.Турдымуратова - педагогика кафедрасы ага оқытыўшысы, тех редактор
6. М.Мамбетназарова - психология кафедрасы стажёр-оқытыўшысы, тех редактор

## **YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR IJTIMOY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

**B.M.Qandov<sup>1</sup>, D.L.Tuganova<sup>2</sup> – f.f.d.(PhD) dotsent<sup>1</sup>, 2 kurs magistranti<sup>2</sup> – Chirchiq davlat pedagogika universiteti Chirchiq shahri**

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida respublikada amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda xotin-qizlarning faol ishtiroki inobatga olingani holda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini yanada oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2019 yil 7 martdagি O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'grisida"gi PQ-4235 qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, ayollar mehnatini muayyan soha yoki kasblarda qo'llash bo'yicha taqiqlar bekor qilindi, bola parvarishlash ta'tilining kamida uch oyi ota tomonidan foydalanilgan taqdirda, ota yoki onadan biriga O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 234-moddasi tartibida qo'shimcha bir oy nafaqa to'lanadigan bola parvarishlash ta'tili beriladigan bo'ldi va ikki yoshga to'lmagan farzandini tarbiyalovchi ota-onalarning biriga ularning ish paytidagi dam olish va ovqatlanish, bolani ovqatlantirish uchun beriladigan tanaffuslar hisobidan ish beruvchi bilan kelishgan holda kun davomida foydalaniladigan tanaffus vaqtini belgilash huquqi berildi.

Shuningdek, 2019 yil 1 maydan Nodavlat notijorat tashkilot maqomiga ega bo'lgan "Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari" tashkil etildi. Markazlarning asosiy vazifalari etib, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan hamkorlikda uzoq muddat bola parvarishlash ta'tilda bo'lgan, mushkul iqtisodiy ahvolga tushgan ayollarni mehnat bozorida talab etilayotgan kasblar bo'yicha qayta tayyorlash va ularning ishga joylashishiga ko'maklashish; tadbirkorlik bilan shugullanish istagini bildirgan ayollarni markazlarga jalb etish va tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga ko'maklashish; ayollarning o'z biznesini tashkil etish va yuritish ko'nikmalarini shakllantirish, biznes goyalarini tayyorlashda konsultativ yordam berish, shu jumladan, loyiha biznes-rejasini tayyorlash, soliqqa tortishning turli rejimlarini tanlash va qo'llash, buxgalteriya hisobini yuritish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va boshqa yo'naliishlar bo'yicha o'qitishni tashkil etish; zarur hollarda, faoliyatini boshlayotgan tadbirkor xotin-qizlarga mahallalardagi bo'sh turgan binolardan joy ajratilishiga ko'maklashish; tadbirkor ayollarga va tadbirkorlik bilan shugullanish istagini bildirgan xotin-qizlarga o'z biznesini tashkil etishda zarur maslahatlar berish va amaliy yordam ko'rsatish, shu jumladan, ishonchli hamkorlarni topish, minitexnologiyalar va uskunalar sotib olishda ko'maklashish, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning realizatsiya qilinishiga

ko‘maklashish; norasmiy faoliyat yuritayotgan hunarmand ayollarga ro‘yxatdan o‘tish, “Hunarmand” uyushmasiga a’zo bo‘lish orqali soliqlar va boshqa turdag'i imtiyozlardan foydalanishda hamda imtiyozli kredit olishda amaliy yordam ko‘rsatishi belgilandi.

So‘nggi yillarida respublika xotin-qizlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning haq-huquqlarini himoya qilish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishi ekanligi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida: “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar”[1], – deya e’tirof etilishi bilan huquqiy norma sifatida belgilab qo‘yilgan. Bu esa, xotin-qizlarning jamiyatning faol a’zosi sifatida barcha sohalarda keng qamrovli ishtirok etishini huquqiy kafolatladi.

Bundan tashqari, xotin-qizlarni himoyalash mexanizmini kuchaytirish maqsadida 2019 yilning 2 sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘grisida”gi O‘RQ-561-sonli Qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonun xotin-qizlarni turmushda, ish joylarida, ta’lim muassasalarida hamda boshqa joylarda tazyiqlar va zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishga qaratilgan. Shuningdek, sohadagi munosabatlarni tartibga solish, tazyiqlar va zo‘ravonlikdan jabrlanganlarni huquqiy hamda ijtimoiy himoya qilish kafolatlarini ta’minalash ham qonunning muhim maqsadlaridandir. Ushbu Qonun bilan jinsiy zo‘ravonlik, jismoniy zo‘ravonlik, ruhiy zo‘ravonlik, iqtisodiy zo‘ravonlik, zo‘ravonlik, ish joyi, tazyiq, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchi, tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish, tazyiqlar va zo‘ravonlikning oldini olish, muhofaza orderi kabi yangi tayanch tushunchalar kiritildi va mazmun-mohiyati ochib berildi. 2019 yilning 2 sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘grisida”gi O‘RQ-562-sonli Qonuni qabul qilindi. Qonunga ko‘ra, davlat xizmati sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minalash orqali davlat boshqaruvida turli jinsdagi shaxslarning ishtirok etishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi kafolatlanadi. Ushbu Qonun bilan gender siyosati amalga oshirilishini ta’minalashga doir vaqtinchalik maxsus choralar, gender, gender statistikasi, gender-huquqiy ekspertiza, jins bo‘yicha bevosita kamsitish, jins bo‘yicha bilvosita kamsitish kabi yangi tayanch tushunchalar kiritildi va mazmun-mohiyati ochib berildi va davlat xizmati sohasida, saylov huquqlarini amalga oshirishda, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda, ta’lim, ilm-fan, madaniyat hamda soqliqni saqlash sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari belgilandi.

Xususan, qonun hujjalardagi jins bo‘yicha kamsitilishiga yo‘l qo‘yadigan normalarni aniqlash va bartaraf etish maqsadida ushbu hujjalalar va ular loyihibalarining gender-huquqiy ekspertizasi o‘tkaziladigan bo‘ldi. Shuningdek, Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minalash sohasidagi yagona davlat siyosati Gender tengligini ta’minalash bo‘yicha komissiya tomonidan amalga oshirilishi belgilandi.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi 1995 yil qo‘shilgan “Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘grisida”[4]gi

Konvensiyasining 3-moddasiga asosan, ishtirokchi davlatlar erkaklar bilan tenglik asosida xotin-qizlarning inson huquqlari hamda asosiy erkinliklarini ro‘yogga chiqarishlari va ulardan foydalanishlarini kafolatlash maqsadida xotin-qizlarning har tomonlama rivojlanishini va taraqqiyotini ta’minlash uchun barcha, xususan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda hamma tegishli choralarini, shu jumladan qonunchilik choralarini ko‘rishlari belgilangan va bugungi kunda qonunchiligidan qilingan.

Milliy qonunchilikda avvalambor Konstitutsiya, shuningdek xalqaro standartlarga mos xotin-qizlarning huquqlarini kafolatlovchi maxsus qonunlar, shuningdek bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlari kafolatlari to‘grisida”gi Qonunida jins bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik hamda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash kafolatlari belgilangan. Qolaversa, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘grisida”gi Qonunda ham xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ularni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish bilan bog‘liq normalar o‘z aksini topgan. Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘grisida”gi 2020 yil 4 yanvar kuni 3-son Qarori bilan “Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berish, ijrosini ta’minlash va monitoring olib borish to‘grisida”gi Nizom tasdiqlangan. Mazkur Nizom bilan tazyiq va (yoki) zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berilishi va tazyiq va (yoki) zo‘ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslarga bir qator cheklolar yoki taqiplari o‘rnatalishi, kelgusida tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatda xotin-qizlarning himoyasiga qaratilgan shuncha huquqiy mexanizmlar bo‘lsa-da, haligacha ularning tahqirlanayotganliklari haqida ma’lumotlar uchrayotgani albatta achinarli holdir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan izchil islohotlar Yangilanayotgan O‘zbekistonda xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish hamda jamiyatda, turmushda, ish joylarida, ta’lim muassasalari va boshqa joylarda xotin-qizlarga nisbatan munosabatni yanada yaxshilash, ularga nisbatan hurmat va ehtiromni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senatining “2030 yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi qarori. <https://lex.uz/docs/5466673>
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. 247-251 betlar.

## МАЗМУНЫ

### 1-СЕКЦИЯ

#### **ЗАМАНАГӨЙ ИЛИМ ҲЭМ ТӘЛИМНИЦ РАЎАЖЛАНЫГУЫ: АКТУАЛ СОРАҮЛАР, ЖЕТИСКЕНЛИКЛЕРИ ҲЭМ ИННОВАЦИЯЛАРЫ**

A.M.Магрупов	КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ВУЗА	5
Н.Ш.Рузикулова	ТАЪЛИМ ВА ЎҚУВ ФАНИНИНГ МАЗМУНИНИ ЛОЙИХАЛАШНИНГ НАЗАРИЙ ЖИҲАТЛАРИ	8
B.M.Qandov	YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA INNOVATSION TA'LIMNING ROLI	11
I.B.Ashurov	TELEKOMMUNIKASIYA SOHASI RAHBAR KADRHLARI VA MUTAXASSISLARINING MALAKA OSHIRISH DAVRIYLIGI VA UNING SIFATIGA BO'LGAN MUNOSABATLARINI TADQIQ ETISH	14
У.М.Мирсанов	ТАЛАБАЛАРГА ДАСТУРЛАШТИЛЛАРИНИ ЎРГАТИШДА КОГНИТИВ ЁНДАШУВДАН ФОЙДАЛАНИШ	17
А.У.Елмуратова	ЗАМОНАВИЙ БОСҚИЧДА ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ТАЛАБАЛАРИНИНГ ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯСИ	19
A.Z.Ismayilov Sh.A.Abdullayeva	YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA KADRHLAR TAYYORLASHNING MUAMMOLARI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	21
B.M.Qandov, D.L.Tuganova	YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH MASALALARI	24
E.T.Kalkanov	INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR TUSHUNCHASI, UNING MAZMUN-MOHIYATI	27
B.M.Qandov G.E.Abdiyev	YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA BARKAMOL AVLOD MA'NAVİYATINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIMNING ROLI	30
Т.В.Уразимова К.Бекжанов	РОЛЬ ДЕКОРАТИВНО-ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА КАРАКАЛПАКСКОГО НАРОДА В РАЗВИТИИ ХУДОЖЕСТВЕННО-ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ	33
Т.В. Уразимова А. Сарсенбаев	ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ МОЛОДЕЖИ СРЕДСТВАМИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА КАРАКАЛПАКСТАНА	35
M.M.Djolimbetova	TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION YONDOSHISH USULLARINING TA'LIM SAMARADORLIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI	37
П.Э Нуралиева, Д.Р.Отакулова	РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ	39
М.Т.Мамбетниязо	ЎҚУВ ЖАРАЁНИ ВА WEB-ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ	42